

**IQTISODIYOT FANLARI / ECONOMIC SCIENCES**

UO‘K 678 (34) 45.5

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMATLARIDAN FOYDALANISH SIFATINI BAHOLASH****Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna** –tadqiqotchi, e-mail: [nasibaergasheva1988@gmail.com](mailto:nasibaergasheva1988@gmail.com)

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash mexanizmining tarkibiy qismlari, shu jumladan outsorsing xizmatlarning maqsad va vazifalari, mijoz tomonidan outsorsing xizmatlar bozorini tanlash, outsorsing shartnomasini tuzish va boshqarish jarayonlari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** outsorsing, outsorsing xizmat, sifat, baholash, bozor iqtisodiyoti, outsorsing mexanizmi, boshqarish jarayoni, outsorsing xizmatlar bozori*

УДК 678 (34) 45.5

**ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АУТСОРСИНГОВЫХ УСЛУГ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ****Эргашева Насиба Рахматуллаевна** – соискатель, e-mail: [nasibaergasheva1988@gmail.com](mailto:nasibaergasheva1988@gmail.com)

***Аннотация.** В данной статье представлены составляющие механизма оценки качества использования аутсорсинговых услуг в дошкольных образовательных организациях, в том числе цели и задачи аутсорсинговых услуг, выбор рынка аутсорсинговых услуг заказчиком, а также научно обоснованные предложения и рекомендации по процессам заключения и ведения договора аутсорсинга.*

***Ключевые слова:** аутсорсинг, аутсорсинговая услуга, качество, оценка, рыночная экономика, аутсорсинговый механизм, процесс управления, рынок аутсорсинговых услуг.*

UDC 678 (34) 45.5

**EVALUATION OF THE QUALITY OF USE OF OUTSOURCING SERVICES IN SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS****Ergasheva Nasiba Rahmatullaevna** – Researcher, e-mail: [nasibaergasheva1988@gmail.com](mailto:nasibaergasheva1988@gmail.com)

***Abstract.** This article presents the components of the quality assessment mechanism of the use of outsourcing services in preschool educational organizations, including the goals and objectives of outsourcing services, the selection of the outsourcing services market by the customer, and scientifically based proposals and recommendations on the processes of concluding and managing the outsourcing contract.*

***Key words:** outsourcing, outsourcing service, quality, assessment, market economy, outsourcing mechanism, management process, outsourcing services market.*

**Kirish**

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari - mamlakatimizdagi uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘inidir. Bu maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 3-7 yoshli bolalarni qabul qilinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy vazifasi beg‘ubor, murg‘ak qalbli yosh bolalarni sog‘lom o‘stirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, yoshiga mos ravishda zamonaviy bilim va tarbiya berish hamda ma’naviy yuksaltirishdan iboratdir. Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga mamlakat Prezidenti va Hukumati tomonidan katta e’tibor berilmoqda, hududlarda

zamonaviy jahon talablariga javob beradigan har tomonlama yaxshi jihozlangan bolalar bog'chalari qurilmoqda. Bu sohaga xususiy sektor jalb qilinib, davlat-xususiy sherikchiligi asosida yoki xususiy, oilaviy bog'chalar ko'paymoqda. Natijada yosh bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish darajasi 2023 yilda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 74,4 foizga, jumladan, 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasi 92 foizga yetkaziladi. Bolalar bog'chalaridagi mutaxassis pedagoglar bolalarning qobiliyati imkoniyatlarini aniqlab qiziqishlarini o'rganib, ota-onalarga bolalar tarbiyasi bo'yicha zarur tavsiyalar berishi lozim. Shuning uchun ham ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan muntazam aloqada bo'lishlari kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi sharoitlar (maktabgacha yoshdagi bolaning o'ziga xos xususiyatlariga yo'naltirilgan ta'lim muhiti; jamoada ijobiy mikroiklim; yuqori sifatli mehnatni rag'batlantirish tizimi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ijodiy yo'naltirish va uning rahbari; oilaning ta'lim ehtiyojlari va so'rovlariga yo'naltirish; o'quv jarayonining holatini muntazam ravishda jamoaviy muhokama qilish va vakolatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish va boshqalar), ovqatlanish, sport to'garaklari uchun ko'rsatayotgan outsorsing xizmatlari sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bunday murakkab holatda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatidan foydalanish yaxshi natija beradi. "Outsorsing" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, shartnoma asosida tashqi manbalardan yoki resurslardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlar faoliyatiga xizmat ko'rsatish funksiyasining bir qismini boshqa bajaruvchi korxonaga yoki kompaniyaga berish, ya'ni outsorsing xizmatini ko'rsatuvchi korxonaga va kompaniyalar xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Outsorsing - bu xarajatlarni minimallashtirish, sifatni ta'minlash (yaxshilash) va belgilangan muddatlarga rioya qilish maqsadida yuqori ixtisoslashgan kompaniyalar yoki alohida mutaxassislarni jalb qilish orqali mijozning asosiy bo'lmagan funksiyalarini bajarishni o'z ichiga olgan xizmat turidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining buxgalteriya hisobida har qanday puxta o'ylanmagan harakat, ishga malakasiz yondashuv, hisob-kitoblar noaniqligi, hatto kichik xato va kamchiliklar ham katta jarimalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yuqori malakali va o'z sohasining ustasi bo'lgan tajribali buxgalterlarga talab kun sayin oshib bormoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining byudjetga to'lanadigan soliqlarni hisoblashda outsorsing xizmatidan samarali va sifatli foydalanish ahamiyati yuqoridir.

O'zbekiston iqtisodiyotida outsorsing xizmatlari yaqin yillarda paydo bo'ldi. Bu outsorsing shartnomalarini faol ravishda tuzishni boshlagan mahalliy tashkilot va kompaniyalar uchun yangi xizmat ko'rsatish sohasi. Fikrimizcha, bunday xizmatlarning mahalliy amaliyotda tarqalishini cheklovchi omillardan biri – ulardan foydalanishning ishlab chiqilgan to'g'ri mexanizmning yo'qligi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan biz ushbu sohani o'rganishni, tashkilot va kompaniyalar rahbarlarining xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymasliklari uchun outsorsing xizmatlaridan sifatli foydalanishni baholashning eng muhim nuqtalarini aniqlashni zarur deb hisoblaymiz. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ushbu xizmat turidan amalda foydalanish imkonini beruvchi mantiqiy o'ziga xos harakatlar tizimi sifatida ko'rib chiqishni taklif qilmoqchimiz.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash muammosi va ularni amaliyotga joriy etishga bag'ishlangan ishlanmalar tahlili, shuningdek, outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmi muammosini o'rganish xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan M.B.Kubayeva, SH.A.Buranova, A.V.Shin, G.A.Omanova va boshqalar maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy hamda ilmiy-metodik masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va ulardagi joylar sonining ko'payib, bolalarni qamrab olish darajasining oshishida O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021 yillarga maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori [1] muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Qaror asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Dasturi qabul qilinib, unga asosan davlat, davlat-sherikchilik, xususiy, oilaviy bilan ta'minlash belgilangan edi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatidan foydalanish bo'yicha ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilinib kelmoqda. Ushbu olimlar Gilmiyarova M.R. [2], Fedorova YE.A., Yermolov A.V. [3], Korneychik M., Lyasuskaya N. [4], Vasilyev A.S., Mirgorodskaya T.V. [5], Yeskova L.F., Drozd A.M., Manevich A.V. [6], Pardayev M. Q. [7], Urazov B.K. [8] va boshqalar. Ushbu tadqiqot yo'nalishining o'ziga xos xususiyati shundaki, mavjud xorijiy va mahalliy ilmiy ishlarning aksariyati faqat outsorsing xizmatlari bozorining ayrim segmentlariga qaratilgan. Bu asosan outsorsingning ma'lum bir turidan foydalanish va u bilan bog'liq muammolarga tegishli tadqiqotlardir.

Autsorsing sohasida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar va O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari tomonidan to'plangan juda kam amaliy tajribaga qaramay, outsorsing xizmatlaridan sifatli foydalanish mexanizmi rivojlanish yo'lida bormoqda. Ushbu masala bo'yicha ilmiy ishlarning juda kamligi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash faoliyatini ishlab chiqadigan chuqur va tizimli tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash usulini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llashning uslubiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan masalalar, monografik kuzatuv va tizimli tahlil bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalari va tahlili**

Bugungi kunda respublikada jami 29420 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilgan. Maktabgacha yoshdagi 2,9 mln nafar boladan 2,1 mln nafari yoki 71,8 foizi maktabgacha ta'limga qamrab olingan bo'lsa, ularning 647655 nafari (90%) 6 yoshli bolalar tashkil etmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash tizimidan kelib chiqib, outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash mexanizmi haqidagi qarashlarni taqdim etamiz.

Mamlakatimizda keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni ortib bormoqda, bunga esa bu muassasalarga talab ortib boraётganligidan dalolat beradi (1-jadval).

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida MTTlarida 30-50 foizni tashkil etmoqda, vahalonki respublika ko'rsatkichi 60-75 foizni tashkil etadi.


Ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining ortib borishi natijasida outsorsing xizmatiga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Shundan kelib chiqan holda, outsorsing xizmatining maqsadi va vazifalarini ishlab chiqish bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mantiqiy harakatlari tizimi, boshqaruv tamoyillari, funksiyalari va usullarini aniqlash, outsorsing kompaniyasini tanlash, shartnoma tuzish va uning barcha bosqichlarida minimal risklar bilan bajarilishini nazorat qilish, maxsus tashkiliy tuzilma – vakolatlar markazi (VM) yordamida ko'rsatiladigan xizmatlarning yuqori samaradorligi va sifatiga ahamiyat berish lozim.

Ushbu outsorsing jarayonlaridan foydalanishni maqsad maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu jarayondan qoniqish va sifatini baholash darajasini aniqlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash tizimidan kelib chiqib, sifatli outsorsing xizmatlarni ko'rishimiz mumkin (1-rasm).

1-jadval


**Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tuman va shaharlar kesimidagi qamrab olish darajasi**

№	Hududlar	MTT		Shundan	
		3-6 yoshli bolalar soni, ming kishi	3-6 yoshli bolalarni MTT qamrab olish darajasi, %	3-6 yoshli bolalar soni, ming kishi	3-6 yoshli bolalarni MTT qamrab olish darajasi, %
1	Shaxrisabz shahri	4 571	39	2 942	25
2	Qarshi shahri	7 996	43	3 914	21
3	G'uzor tumani	8 030	43	4 127	22
4	Dehqonobod tumani	2 829	19	3 592	25
5	Qamashi tumani	6 511	25	5 302	20
6	Qarshi tumani	6 951	34	6 919	33
7	Koson tumani	9 166	35	6 740	26
8	Kasbi tumani	5 823	33	4 532	25
9	Kitob tumani	5 946	25	4 727	20
10	Mirishkor tumani	2 804	27	3 888	38
11	Muborak tumani	2 866	39	1 798	24
12	Nishon tumani	6 350	46	2 837	21
13	Chiroqchi tumani	5 330	20	6 276	24
14	Shaxrisabz tumani	7 382	37	4 283	22
15	Yakkabog' tumani	6 862	26	8 092	31
16	Ko'kdala tumani	3 827	19	1 726	9
Jami		93 244	30,9%	71 695	23,8



1-rasm. Outsorsing xizmatlarining sifat omillari.

Autsorsing xizmatlarining sifatini ularni baholash imkoniyati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqing. Bizning fikrimizcha, autsorsing xizmatlari sifatining barcha tarkibiy qismlarini ikkita ko‘rsatkich guruhiga bo‘lish mumkin: miqdoriy (o‘lchash uchun), obyektiv baholashni talab qiluvchi va sifat (tavsifiy), subyektiv baholashni talab qiladi (2-rasm).



2-rasm. Autsorsing xizmatlarining sifat ko‘rsatkichlari.

Buyurtmachi va autsorsing xizmatlarining pudratchisi o‘rtasidagi muzokaralar jarayonida autsorsingchi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifati bo‘yicha nizolar paydo bo‘lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, bu jarayon xizmat sifati bo‘yicha shartnomada belgilanishi kerak va bu shartnomada aks ettirilishi kerak. Ushbu hujjat mijoz uchun kutilgan natijalarni belgilaydigan autsorsing xizmatlari uchun sifat nazorati ko‘rsatkichlarining tartiblangan tizimidir. Sifat mijoz va autsorser o‘rtasidagi birinchi aloqa paytidan boshlab shartnomaning tugashigacha bo‘lgan barcha aloqalarning oxirigacha talabi bo‘lishi kerak.


Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash yuqoridagi elementlari bo‘yicha ba’zi fikrlarni bildiramiz. Ushbu hodisani aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimini va ularni o‘lchash usullarini tanlash kerak. Bunday holda, ekspert baholashlari eng maqbul bo‘ladi, chunki xizmatlarga nisbatan boshqa usullardan foydalanish qiyin.

Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida muayyan turdagi ishlarni autsorsing qilish yoki ixtisoslashtirilgan monitoringni qo‘llashda muntazam kalendar yordamida sifatni kuzatish mumkin. Biz ko‘rsatkichlar tizimini autsorsing xizmatlarini amalga oshirish bosqichlari bo‘yicha taqsimlashni taklif qilamiz: uni taqdim etishdan oldin ushbu turdagi xizmatlar uchun xavf zonalarini aniqlash uchun moddiy va insoniy omillarning sifatini dastlabki baholash o‘tkazilishi kerak. Xizmatlarni bajarish faktining yakuniy o‘lchovi shartnoma muddati oxirida tashkil etiladi. Xizmatning xarakteristikalari amaliy jihatdan quyidagi hollarda muhim ahamiyatga ega: ko‘rsatilayotgan xizmatlarning qoniqarsiz sifati uchun javobgarlik va jarimalar qo‘llash, mijoz va autsorsing kompaniyasi o‘rtasidagi hamkorlikni tiklash masalasini hal qilish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xizmatni qoniqarsiz bajargan taqdirda sifat to‘g‘risidagi qoidalarni amalga oshirishning yakuniy bosqichi jarima shaklida javobgarlik bo‘ladi. Bu erda asosiy nuqta autsorser uchun sifatli xizmatlarni taqdim etish uchun foydali bo‘ladigan shunday kelishuvga erishishdir.

Taqdim etilayotgan xizmatlar sifati ko‘p jihatdan xizmatlarni boshqarish tizimini joriy etish va uning samaradorligini o‘lchashga bog‘liq bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatish sohasida sifat menejmenti jarayoni xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha barcha faoliyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatining mazmunidan kelib chiqib, biz xo‘jalik yurituvchi subyektlarni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmining tarkibiy elementlarini shakllantirdik (3-rasm).



*Eslatma: XSS – xavf-xatarlar, samaradorlik va sifat*  
3-rasm. Autorsing mexanizmining tarkibiy qismlari.

Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning umumiy maqsadini shakllantirish orqali xarajatlarni minimallashtirish va korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirishga erishish mumkin. Shu bilan birga mahsulot, ishlar va xizmatlar sifatining zarur darajasini saqlab qolishga erishiladi.

Autorsing xizmatlari bozorini tadqiq qilish jarayonida, tabiiyki, kompaniyaning asosiy bo‘lmagan funksiyalarini kimga topshirish va o‘tkazish masalasi tug‘iladi. Outsorser kompaniyani tanlash muammosi prinsipial jihatdan muhim nuqta sifatida qaralishi kerak. Uni hal qilish uchun ijrochini tanlashning mezonlari aniqlanadi. Ular rasmiy bo‘lishi mumkin: faoliyatni amalga oshirish uchun lisenziyaning mavjudligi, fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha sug‘urta polisi, akkreditatsiyalangan professional uyushmaga a‘zolik, moliyaviy resurslar, jihozlar va boshqa moddiy imkoniyatlar, shuningdek, professional va shaxsiy: kasbiy bilim va yuqori malakaga ega bo‘lish; bozorda ijobiy obro‘- majburiyatlarni bajarish uchun mehnat resurslari bilan to‘liq ta‘minlash - shartnoma bo‘yicha (shakllangan jamoa); bozor tajribasi kabi rasmiy mezonlarni sanash mumkin. Rasmiy mezonlar mavjudligi professional va shaxsiy xususiyatlarni maksimal darajada amalga



oshirish bilan birlashtirgan outsorser xizmatiga ustunlik berish ko'pgina muammolarni hal etish demakdir.

### Xulosa

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholashda, zamonaviy sharoitda eng muammoli uch nuqtani asos qilib olishimiz zarur:

- outsorsingdagi risklar va ularni baholash;
- outsorsing xizmatlari samaradorligini;
- outsorsing sifatini o'lchash yondashuvlarini.

O'zbekiston iqtisodiyotida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash mexanizmi outsorsing kompaniyalarini tanlash, shartnomalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va manfaatdor sheriklar o'rtasidagi munosabatlarni tiklash uchun mantiqiy harakatlar tizimi sifatida qurilgan. Taklif etilayotgan outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash mexanizmi 7 ta bochqichining har biridan outsorsing xizmatlarida to'liq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Autsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash mexanizmida risklarni baholash usullarini tanqidiy tahlil qilgan holda tizimlashtirish amalga oshirildi. Autsorsing loyihalarini qo'llashda xavflarni o'lchash usullari bo'yicha asosli xulosalar chiqarilib «Xavfni baholash» tushunchasi sifat yondashuvini (xavflarning manbalari, sabablari, turlari) va miqdoriy yondashuvni (muayyan operatsiyadagi uning ahamiyatini va undan kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararni baholash) hisobga olish zarurati ochib berildi.

### Adabiyotlar

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021 yillarga maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori.
- [2] Гилмиярова М.Р. Проблемы и перспективы развития бухгалтерского аутсорсинга // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 2017. - № 2. - С. 76-80.
- [3] Федорова Е.А., Ермолов А.Б. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решения. - 2016 . - № 27 - С. 4-14.
- [4] Корнейчик М., Лягуская Н. Развитие бухгалтерского аутсорсинга в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - Режим доступа: [http://soDhus.at.ua/publ/2016\\_03\\_31\\_Iviv/sekcii\\_a\\_section\\_8\\_2016\\_03\\_31\\_/развитие\\_бухгалтерского\\_аутсорсинга\\_в\\_республике\\_Беларусь/122-1-0-1848](http://soDhus.at.ua/publ/2016_03_31_Iviv/sekcii_a_section_8_2016_03_31_/развитие_бухгалтерского_аутсорсинга_в_республике_Беларусь/122-1-0-1848). - Дата доступа: 02.05.2018.
- [5] Васильев А.С., Миргородская Т.Б. Проблемы и перспективы аутсорсинга бухгалтерского учета в России // Международный научно-исследовательский журнал, 2015. - Выпуск № 1. Част 2. - С. 19-21.
- [6] Ескова Л.Ф., Дрозд А.М., Маневич А.Б. Аутсорсинг в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - Режим доступа: [http://eiib.bsu.by/bitstream/123456789/89793/1/Дрозд\\_Маневич\\_сборник11](http://eiib.bsu.by/bitstream/123456789/89793/1/Дрозд_Маневич_сборник11), Том1.пдф. - Дата доступа: 12.03.2017.
- [7] Pardayev M.Q. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari.—T.: «Iqtisod–moliya». 2008. – 260 b.
- [8] Urosov B.K. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditning dolzarb masalalari. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2011. – 260 b.